# "MAKTABGACHA TA'LIM – MAKTAB – OLIY TA'LIM" KONSEPSIYASI: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

## MATERIALLARI

2022-yil, 9-aprel

Buxoro – 2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI KAFEDRASI

# MAKTABGACHA TA’LIM – MAKTAB – OLIY TA’LIM” KONSEPSIYASI: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

# MATERIALLARI

**2022-yil, 9-aprel**

**Buxoro – 2022**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 11 | Ekin maydoni 8 ta teng bo'laklarga bo'lindi. Ikkita bo'lakka kashnich, uchtasiga rediska ekildi. Kashnichga ajratilgan maydon kattami yoki rediskagami? Chizma chizing. Kasr ko'rinishida taqqoslang. | Sonning bir necha qismini topishga doir masala | Masalani chizma chizish usuli bilan ishlash mumkin.  | Ushbu masala orqali bolada dehqonchilikka bo'lgan qiziqish va mehrni uyg'otish mumkin. |
| 12 | Muxlisa 36 betli kitobning oltidan besh qismini, Bobur esa oltidan to'rt qismini o'qidi. Ularning har biri necha betdan o'qishgan? Kim ko'proq o'qigan? | Sonning bir necha qismini topishga doir masala | Ushbu maslani qisqa shart tuzib, yoki diagrammalar orqali ishlash mumkin. | Ushbu masla orqali o'quvchilarni kitob o'qishga undashimiz mumkin. Ulardan bir kunda necha bet kitob o'qiy olishlari va shu paytgacha qaysi kitoblarni o'qib tugatganliklari haqida so'rashimiz mumkin |

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, ulush va kasrga doir har bir masala o'ziga xos yechilish yo'llari va usullariga ega. Ularni to'g'ri tanlay bilish va o'quvchiga tushuntira olish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Ulush va kasrga doir masalalar biroz murakkab tuyulsada, o'quvchini fikrlashga undaydi va uning dunoqarashini kengaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi
2. M.E.Jumayev, Z.G'.Tadjiyeva "Boshlang'ich sinf matematika o'qitish metodikasi".,T.,2005
3. S.Burxonov, O'.Xudoyorov, Q.Norqulova; Matematika 3-sinf uchun darslik, T.,2019
4. M.J.Saidova "Boshlang'ich sinflar uchun nazorat ishlar to'plami. Metodik qo'llanma. T.,2019
5. N.K.Ro'ziyeva "Introducing primary school students with the concept of shares and fraction by using innovation technologies in mathematics lessons", ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (6), 338-342, 2021


## MAKTABGACHA TA'LIM VA UMUMIY O'RTA TA'LIMNING O'ZARO INTEGRATSIYASI


**M.M.Nigmatova**

*BuxDU, Maktabgach ta'lim kafedrasi dotsenti*

**Sh.J.Jo'rayeva**

*BuxDU, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*



**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi ekanligi, maktabgacha ta'limning maqsadi-bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish haqida so'z yuritilgan



**Kalit so'zlar:** transformatsiya, axborot texnologiyalari, nutq, maktabgacha yoshdagi bola.



**Аннотация:** В статье говорится о том, что дошкольное образование является первостепенной частью непрерывного образования, целью дошкольного образования является подготовка детей к школе, формирование ребенка как здоровой, развитой, самостоятельной личности, раскрытие его способностей.



**Ключевые слова:** трансформация, информационные технологии, речь, дошкольник.



**Abstract:** The article says that preschool education is a paramount part of lifelong education, the purpose of preschool education is to prepare children for school, to form a child as a healthy, developed, independent personality, to reveal his abilities.



**Keywords:** transformation, information technology, speech, preschooler


Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi-bolalarni maktabdagi o'qishga

tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tashkilotlarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi va u erda bolalarning bo'lish davomiyligi davlatning maktabgacha ta'lim sifat va darajasiga bo'lgan talablari, nizom, maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda ta'sischilar tomonidan belgilandi.

Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilingan bo'lib, u erga bolalar davlatning joylardagi vakolatli ta'limni boshqarish va sog'liqni saqlash organlari tarafidan tashkil qilingan ruhiy-tibbiy pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

Maktabgacha ta'lim, olinish shakli va usullaridan qat'iy nazar, quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

Bolalarni maktabda o'qishga maqsadli va tizimli tayerlash;

Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish;

Bolalarni milliy va umuminsoniy etik va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;

Bolalarda yuqori ma'naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish;

Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini mustahkamlash;

Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz va qozoq tillarida olib boriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati - bu o'yin. Asosiy psixologik jarayonlarning rivojlanishi - xotira, diqqat, e'tibor, fikrlash, tasavvur ham maktabgacha yoshdagi davrda faol rivojlanadi va o'sib boradi. Bolalar bog'chasidan maktab ta'limiga o'tish davrida bolaning tanasida va psixologiyasida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Moslashish ya'ni adaptatsiya davrini boshlab beradi. Bu jarayonda bola bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. O'yindan o'tish jarayoni bolaning o'quv jarayonini o'zi idrok etishida qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu holatlarda ota-ona va maktabgacha talim tashkilotlari o'rtasida hamkorlik juda muhim hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasida umumiy ta'lim muhitini yaratish.

Maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik ishlarida quyidagilar muhim hisoblanadi. Maktab ta'limi talabidan kelib chiqqan holda bolalar bilimlarini chuqurroq egallashi, bolalarni maktabga ruhiy tayyoragarligi, maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlar rivojlantiruvchi tarzda bo'lishi, bolalarni aqliy mehnatga bo'lgan qiziqishlarini orttirish. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlik bolalarni maktab ta'limi talablariga javob beradigan darajada bilimlar bilan qurollantirib, umumiy jihatdan rivojlantirib va odobli qilib tarbiyalagan holda maktabga yuborilishini va o'qituvchining maktab yoshidagi bolalarning egallagan bilim, malaka va sifatlariga asoslanib, dars va tarbiyaviy jarayonlarda foydalanish uchun zamin yaratadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar egallagan xulq atvor shakllari, kattalar va tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabat shakllari axloqiy his tuyg'u va tasavvurlar maktabning boshlang'ich sinflarida bolalarga yangi axloqiy xulq atvor shakllarini, ongini, his tuyg'ularini tarbiyalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari eng avvalo ta'lim va tarbiyani oila bilan hamjihatlikda olib bormoği lozim. Shundagina bolaning ilmiy va dunyoviy qarashlarini keng manoda tarğib qilib unga kõproq bilim bera olish mumkin. Qachonki poydevor mistahkam qo'yilsagina bolaning ham ertangi yani umumiy ȍrta ta'lim sohasida ham o'zining bilim va salohiyatini keng namoyon qilishida ham maktabgacha talim tarbiyachilarining roli katta bȍlib hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy ȍrta ta'lim maktab birga ish olib borar ekan yoshlarimizning bilim va salohiyatlari, dunyoqarashlari ertangi kunning rivoji ham shu ikkala talim sohasining birgalikdagi harakatiga bog'liqliginini nazarda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Nigmatova M. M. ZAMONAVIY DUNYODA BOLANING SHAXSIY RIVOJLANISHI MUAMMOLARI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1166-1171.

2.Nigmatova M. M. MUAMMOLI VAZIYALARINI HAL QILISHDA INTERFAOL VOSITALARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1079-1085.

3.Нигматова М. М., Мирзаева Д. Ш. РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА
С ПОМОЩЬЮ ART ПЕДАГОГИКИ //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 14-3 (117). – С. 31-34.
4.Maxmudovna N. M. et al. AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN BOLALAR SALOMATLIGINI SAQLASHDA FOYDALANISH //БОШҚАРУВ ВА ЭТИКА ҚОИДАЛАРИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 37-43.
5.Mahmudovna N. M. Systemic Approach to Education //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 184-191.
6.Maxmudovna N. M. et al. MAKTABGA TAYYORLOV YOSHI BOLALARINI SHAXSIY KOMPYUTERLARDAN GIGIYENIK TOGRI FOYDALANISHGA ORGATISH //БОШҚАРУВ ВА ЭТИКА ҚОИДАЛАРИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 153-159.

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA TA'LIM-TARBIYAVIY JARAYONNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Shodiyeva Fazila Xudoyqulovna**
*Karmana tuman 15 – sonli" Navro'z"*
*Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga tayyor*lashda ta'lim-tarbiyaviy jarayonning o'rni va o'ziga xos xususiyatlari xususidagi fikrlar keltirilgan.*
***Kalit so'zlar:*** *o'yin, didktika, maktabgacha ta'lim, o'z – o'zini anglash, diqqat, mashg'ulotlar, maktab ta'limi.*
***Аннотация:*** *в данной статье рассматривается роль и специфика образовательного процесса в подготовке дошкольников к школе.*
***Ключевые слова:*** *игра, дидактика, дошкольное воспитание, самосознание, внимание, уроки, школьное образование.*
***Annotation:*** *this article discusses the role and specifics of the educational process in preparing preschool children for school.*
***Key words:*** *play, didactics, preschool education, self-awareness, attention, lessons, school education.*

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar o'ziga xos xususiyatga ega. Bu o'ziga xoslik maktab ta'lim-tarbiya ishlaridan nusxa ko'chirish emas, balik bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun zarur bo'ladigan og'ishmay shakllantirishga mo'ljallangan faoliyat va xulq-atvorni maxsus tashkil etishdir. Bu bolalar faoliyatining barcha turlarini murakkablashtirishda, bolalar tomonidan amalga oshirishning murakkab usullarini egallashlarida, faoliyat jarayonida hamkorlikning yangi usullarini o'zlashtirishda, bolalar faoliyati va xulq-atvorining jamoatchilik yo'nalishini rivojlantirishda, ijtimoiy-foydali asoslarini ilgari surishda namoyon bo'ladi. Bu jarayon bo'lajak maktab majbutiyatlarini hisobga olib talablarning so'zsiz ortib borishi bilan ifodalanadi. O'z ahamiyatiga ko'ra bolalarning mustaqilliklari, o'yin, o'qish va mehnatning sifat va natijaliligi birinchi o'ringa chiqadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Kun tartibining o'zgarishida – bola yuvinish, kiyinish, ovqatlanish jarayonlarini tez sur'atda bajarishga o'tadi, faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga tezroq moslashadi. Tarbiyachining bolalar bilan muloqot usuli o'zgaradi, o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatiga xos ayrim xususiyatlarni kasb etadi (bolalarga qo'yiladigan talab ortadi, ularda mustaqillik rivojlanadi). Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga, o'qishga ishtiyoq, qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elemantalarini o'rgatish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mashg'ulotlar vaqti ortadi. Bunda bolalarni voqelikning turli sohalari haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish va to'g'ri dunyoqarashni shakllantirishga oid ishlar olib boriladi. Bolalar bilimlarini o'rganilayotgan narsa va hodisalardagi muhim belgi hamda munosabatlarni ajratish asosida yanada umumlashtirish va tizimlashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Bolalarni maktabda o'qishga tayyorgarligining yana bir muhim tomoni – atrof-olam, narsa va hodisalarni tegishli mezonlarda umumlashtira va tabaqalashtira bilish hisoblanadi. Istalgan o'quv fanini egallash bolada mazkur o'quv o'quv fanida ko'rib chiqilayotgan voqelik hodisalarini ajratish va uni o'z bilish obyektiga aylantirish qobiliyatining albatta mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Bu tizimlashtirish,

Z.Q.Hamroyeva. MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA BOLALARNING O‘QISH VA YOZISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI ........ 260
Husenova Aziza Sharipovna, Sharofova Feruza. BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH ........ 263
Nurova Yulduz Ubaydullayevna. PAREMALARDAGI ICHIMLIK NOMI TURLARINING ETNOLINGVISTIK TADQIQI ........ 264
Sh.M.Farmonova. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI BOSHQARISH........ 266
Jalilova Gulchehra Kamolovna, Mahmudova Sarvinoz. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARNI MAKTAB TA'LIMIGA SIFATLI TAYYORLASHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK ........ 269
Jo‘rayeva Oliya Usmonjon qizi. BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI ,O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 271
Jurayeva Maxliyo Mirzoyena. ONA TILI DARSLARIDA TA’LIMIY O‘YINLARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI ........ 273
F.M.Qosimov, M.M. Qosimova. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MIQDOR VA SON-SANOQ TUSHUNCHASINI KIRITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 275
Шохиста Шодиевна Низомова. НУТҚ ЎСТИРИШНИНГ ОИЛА,МАКТАБГАЧА ЁШ,МАКТАБ ЁШ ДАВРИДАГИ АҲАМИЯТИ........ 277
Axrorov Ixtiyor Doniyorovich. IKKI SONNING YIG‘INDISI (YOKI AYIRMASI) VA KARRALI NISBATIGA KO‘RA SHU SONLARNI TOPISHGA DOIR MASALALAR........ 279
Ochilova Laylo Temirpovna. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIGA PREDIKATLAR MAVZUSINI O‘RGATISH ........ 282
Adizova Nodira Baxtiyorovna, Nazarova Marjona Xodjiyevna. O‘QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA METODIK TAVSIYALAR........ 285
Sidiqova Dilora Shavkatovna. TA’LIMDA KOMPETENTLIK VA KOMPETENSIYA TUSHUNCHALARINING IFODALANISHI ........ 286
Karimova Gulshoda Shavkatovna. BOLANI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA MTT VA MAKTAB HAMKORLIGINING VAZIFALARI ........ 288
Nigmatova Mavjuda Maxmudovna. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘RTASIDAGI UZVIYLIK ........ 290
Norqulova Zarnigor. MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARI VA MAKTAB TA’LIMI HAMKORLIGI ALOQASINING SHAKLLARI ........ 292
Y.U.Nurova. PAREMALARDAGI OZIQ-OVQAT NOMLARI ETNOLINGVISTIKA OBYEKTI SIFATIDA........ 293
Kurbonova Zilola Ismoil qizi, Safarova Mohinur. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA 5-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING ASOSIY VAZIFALARI........ 295
Qahhorova Abera Sharopovna. O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI ........ 297
Jamilova Bashorat Sattorovna, Raximova Ruxsora Haydar qizi. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKILLASHTIRISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI. 298
Raxmonova Gullola Shavkatovna, Idiyeva Manuchexra Ikrom qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA SAMARALI TAYYORLASH USULLARI........ 299
Ro‘ziyeva Nigora. 3-SINF MATEMATIKA DARSLIGIDAGI ULUSH VA KASRGA OID MASALALARNING TAHLILI........ 301
M.M.Nigmatova, Sh.J.Jo‘rayeva. MAKTABGACHA TA’LIM VA UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING O‘ZARO INTEGRATSIYASI ........ 304
Shodiyeva Fazila Xudoyqulovna. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA TA’LIM-TARBIYAVIY JARAYONNING O‘RNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 306
Shoyeva Yulduz Amin qizi. MASALANI MUHOKAMA QILIB YECHISHNING AFZALLIKLARI VA BUNGA ERISHISH YO‘LLARI ........ 307
Temirova Adolat Ubaydullayevna. BOLALARNING MATEMATIK TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH........ 310
Shodiyeva Nigora Soliyevna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA SHARHLAB O‘QITISHNING AHAMIYATI VA ROLI, TURSUNBOY ADASHBOYEVNING “ONA TILIM” SHE’RI MISOLIDA........ 312